SUD BOSQICHIDA DALILLARNI QONUNIY ASOSDA BAHOLASH: NOMAQBUL DALILLAR MASALASI

F.N.Jumayev
Osiyo xalqaro universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda sud bosqichida nomaqbul dalillarni baholash va ularning sud qarorlariga ta’siri yoritilgan. Unda dalillarning qonuniyligi, ishonchliligi va protsessual me’yorlarga muvofiqligi tahlil qilinadi. Nomaqbul dalillarni aniqlash, ularni ish materiallaridan chiqarish hamda faqat qonuniy dalillar asosida adolatli sud qarori qabul qilish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish va sud tizimining xolisligini ta’minlashda dalillarni to‘g‘ri baholashning amaliy ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sud jarayoni, dalil, nomaqbul dalil, baholash, qonuniylik, ishonchlilik, adolatlilik, jinoyat-protsessual kodeks, inson huquqlari, sud mustaqilligi.

Kirish. Sud jarayonida dalillarni to‘g‘ri baholash va ularni qonuniy tarzda qo‘llash sudning adolatli ishlashi uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Har qanday jinoyat ishida haqiqatni aniqlash dalillar orqali amalga oshiriladi. Shu o‘rinda shuni ta’kidlash kerakki, dalillarni to‘plash, tekshirish va baholash jarayonida qonuniylik tamoyiliga qat’iy rioya etish zarur. Nomaqbul dalillar, ya’ni qonunga zid ravishda olingan ma’lumotlar, inson huquqlarini buzadi hamda sud qarorining adolatliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoldan holi emas.

Bugungi kunda bu masala hamon dolzarb bo‘lib, sud amaliyotida dalillarni baholashda xolislik, qonuniylik va protsessual talablarni to‘liq bajarish talabi tobora kuchayib bormoqda. Ushbu tezisning maqsadi sud bosqichida nomaqbul dalillarni baholash tartibini yoritish, ularning amaliy ahamiyatini ochib berish va bunday dalillardan foydalanishning oqibatlarini tahlil qilishdan iboratdir.

Sud protsessida dalillarni baholash jarayoni mustaqil va adolatli qaror qabul qilishning asosiy bosqichi hisoblanadi. Har bir dalil sud tomonidan bevosita tekshiriladi, uning qonuniyligi, ishonchliligi va ishga aloqadorligi aniqlanadi. Sud faqat qonuniy yo‘l bilan

olingan dalillarni hisobga oladi, chunki noqonuniy yo‘l bilan olingan dalillar ishonchli manba sifatida qaralmaydi. Jinoyat-protsessual kodeksda nomaqbul dalillarni sud qarorida ishlatish qat’iyan taqiqlangan. Nomaqbul dalil - bu tazyiq, kuch ishlatish, zo‘rlik, ruhiy yoki jismoniy bosim ostida olingan, shuningdek, protsessual tartib buzilgan holda yig‘ilgan ma’lumotdir. Masalan, gumonlanuvchi advokat ishtirokisiz so‘roq qilingan bo‘lsa yoki tintuv ruxsatsiz o‘tkazilgan bo‘lsa, bunday dalillar nomaqbul deb hisoblanib jinoyat ishi ish materillaridan chiqarib tashlanadi.

Sud dalillarni baholashda ularning manbasiga, olingan sharoitiga, mazmuniga va ishonchlilik darajasiga e’tibor qaratadi. Bu jarayonda sud tergov organlarining xulosasiga to‘liq tayanmaydi, balki dalillarni mustaqil tahlil qiladi. Nomaqbul dalil deb topilgan ma’lumotlar ish materiallaridan chiqarib tashlanadi va qaror chiqarishda inobatga olinmaydi. Bu inson huquqlarini himoya qilish va adolatli sudlovni ta’minlash uchun zarur chora hisoblanadi.

Sud bosqichida dalillarni baholash faqat ularning soni yoki ko‘pligiga emas, balki sifatiga asoslanadi. Sud har bir dalilning o‘zaro bog‘liqligini, bir-birini to‘ldiruvchi yoki inkor etuvchi jihatlarini o‘rganadi. Agar dalilning olingan manbasi shubhali bo‘lsa yoki u qonuniy yo‘l bilan olinganini isbotlovchi protsessual hujjatlar mavjud bo‘lmasa, u holda bunday dalilning sudda kuchi bo‘lmaydi. Nomaqbul dalillarning ishlatilishi nafaqat jinoyat ishi natijasiga, balki sud tizimining obro‘siga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Yuqorida aytib o‘tilgan holatlar bilan qarshilashmaslik uchun har bir tergovchi, prokuror va sudya dalillarni to‘plash va baholashda qonun talablariga qat’iy rioya etishi lozim.

Nomaqbul dalillarni istisno etish sud jarayonining konstitutsiyaviy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bu inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishga, aybsizlik prezumpsiyasini ta’minlashga hamda sudning xolisligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adolatli sudlovning mohiyati shundaki, har bir qaror faqat qonuniy va ishonchli dalillarga asoslanishi lozim. Shu bilan bir qatorda, sudlar dalillarni baholashda faqat ayblov tarafining emas, himoya tomonining dalillarini ham inobatga olishi, barcha ma’lumotlarni teng asosda ko‘rib chiqishi kerak. Aks holda, qaror bir tomonlama bo‘lib, adolat tamoyiliga zid natijaga olib keladi.

Sud jarayonida noqonuniy dalillarni aniqlab, ularni rad etish inson huquqlarini himoya qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bunday yondashuv jamiyatda sud hokimiyatiga bo‘lgan ishonchni oshiradi, huquqiy davlat barpo etish yo‘lida muhim qadamlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, nomaqbul dalillarni ishlatish oqibatida oqlanmagan ayblovlar, inson sha’niga putur yetkazuvchi holatlar va qonun ustuvorligiga zid qarorlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun dalillarni baholash jarayonida qonuniylik, adolat va xolislik prinsiplari har doim ustuvor bo‘lishi shart.

Bugungi kunda amaliyotda bu masala yana ko‘p muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. Xulosada shuni aytish mumkinki, sud bosqichida nomaqbul dalillarni baholash bu adolatli sudlovning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Sud bosqichida dalillarni baholash jarayonida ularning qonuniyligi, ishonchliligi va olingan manbasi asosiy mezon sifatida qaraladi. Nomaqbul dalillarni ish materiallaridan olib tashlash yo‘li bilan sud inson huquqlarini muhofaza qiladi va adolat asoslarini amalda joriy etadi. Bundan kelib chiqadiki, faqat qonuniy dalillar asosida qaror qabul qilinishi sud tizimining halolligi va xalq ishonchini saqlash uchun zarur shartdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T.: Adolat, 2025.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yilgi tahrir).

3. Abdusalomov A., Rasulov X. Jinoyat protsessining nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: TMI nashriyoti, 2021

4. To‘xtasinov I. Sudlovda dalillarni baholash tamoyillari // Huquq va burch jurnali, 2022-yil, №4

5. Xudoyberdiyev B. Jinoyat ishida dalillarning ishonchliligi va ularni baholashning huquqiy asoslari. – T.: TDYuU, 2020.

6. www.lex.uz — O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlar bazasi